

МУАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИҲ



Илимий-методикалық журнал

2023

3/3-сан

*Ўзбекистон Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы
Жоғарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ғәм хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы ғуўалық берилген.*



Арсланова М. М. Инклюзив мактабгача таълимда ота-оналарнинг инклюзив маданиятини шакллантириш	487
Jabborova O. M., Saparbaeva D. Boshlang'ich ta'limning yangi vazifalari	492
Qarshiboyeva X. K., Muminov Z. Sh. Maktab ta'limida erkak o'qituvchilarning yetishmasligi bugungi ta'limning asosiy muammolaridan biridir	497
Jabborova O. M., Mamatova A. M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy fazilatlarini shakllantirish	503
Omonov D. A. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash metodikasi	507

СҮЎРЕТЛЕЎ ӨНЕРИ ҲАМ МУЗЫКА

Axmedova N. E. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining madaniy o'ziga xosligini va estetik didini shakllantirishda an'anaviy va xalq amaliy san'atining o'rni	512
Axmedova N. E. O'zbekiston xalqining ma'naviy va milliy madaniyati merosida an'anaviy va xalq amaliy san'atining o'rni	517
Қурбонова Б. М. Тасвирий санъат дарсларида ўқувчиларда бадий тафаккур элементларини шакллантиришга йўналтирилган педагогик жараён мазмуни ҳамда ўқувчиларнинг тасвирий фаолият натижаларини баҳолаш параметрлари	523
Қурбонова Б. М. Тасвирий санъат дарсларида ўқувчиларда бадий тафаккур элементларини шакллантириш усуллари	529
Mamurov A. A. O'zbekistonning an'anaviy kulolchilik san'atining boy tarixi va o'ziga xos xususiyatlari	534
Исаков У. Т. Ўрта Осиё мутафаккирларининг ўзбек мусика маданияти ривожланишига оид асарларининг илмий назарий таҳлили	540
Yunusaliyev M. T. Dekorativ kompozitsiyada ranglarni tanlash san'ati: ijodiy yondashuvlar tahlili	546
Yunusaliyev M. T. Tasviriy san'atni o'qitish metodikasi: rassomlik va rang yaxlitligi	551
Soxibov R. J. Milliy naqqoshlik va uning turlari	557
Mansurova N. R. Aksiologik yondashuv asosida talabalarda milliy musiqiy merosni asrashga doir bilimlarni takomillashtirish	564

ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБИЯ ҲАМ СПОРТ

Primbetov Sh., Joldasbaev P. Erkin gu'res sport turinde sport trenerovkasini rejelestiriv, sportshilardn texnik-taktik tayarlgi	573
Qaljanov R., Yakupbaev A. Jas guresshilerdn fizikaliq sapalarin hareketli oyinlar jardeminde rawajlandiriv	577
Шамуратов А. А. Бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчиларининг касбий компетентлигини такомиллаштиришнинг ўзига хос хусусиятлари	582
Xujomov B. X. Kurashchining umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligi	586
Xudoyberganov J. S Kurash mashg'ulotida shakl va vositalarning ahamiyati	590
Бувораева Г. Ш., Не'матова Д. Умумтаълим мактаб ўқувчиларининг жисмоний тарбиясида соғлом турмуш тарзининг ўрни	594
Каримов Ж. З. Ёш мини-футболчиларни жисмоний тайёргарлигини аниқлаш йўллари	599
Aliyeva I. O. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni jismoniy rivojlantirish	603
Пахратдинов С. Ю. Формирование готовности будущего учителя к обучению младших школьников риторике	608
Эрдонов О. Л., Махмудов В. В. Организационно-педагогические аспекты развития мини-футбола в ВУЗе	614
Эрдонов О. Л. Анализ соревновательной деятельности квалифицированных спортсменов в женском и мужском мини-футболе как один из методов повышения качества учебно-тренировочного процесса спортсменов	619
Бердиев Б. Ч. Национальная борьба как один из видов физической культуры	625
Мирзасев А. М. Требования физического воспитания курсантов на занятиях спортом	629



MAKTAB TA'LIMIDA ERKAK O'QITUVCHILARNING YETISHMASLIGI BUGUNGI TA'LIMNING ASOSIY MUAMMOLARIDAN BIRIDIR

Qarshiboyeva X. K.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Boshlang'ich ta'lim metodikasi"
kafedrası o'qituvchisi

Muminov Z. Sh.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Tayanch so'zlar: maktab, erkak o'qituvchi, ayol o'qituvchi, farzand tarbiyasi, ijobiy tomoni, salbiy tomoni.

Ключевые слова: школа, учитель-мужчина, учительница-женщина, воспитание детей, положительная сторона, отрицательная сторона.

Key words: school, male teacher, female teacher, parenting, positive side, negative side.

Kirish. Bugungi murakkab globallashuv davrida, yoshlarimizda milliy g'oya va mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, ularni turli zararli g'oya tahdidlardan asrash, hamda ularni o'z mustaqil fikriga ega, irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalash har doimgidan ham dolzarb bo'lib turibdi.

Yosh avlodni har tomonlama yetuk, ma'naviy barkamol, jismonan sog'lom qilib tarbiyalashda, albatta o'qituvchining o'rni katta. Xalqlar o'rtasida "O'qituvchi-millat tarbiyachisi" tushunchasi bejiz aytilmagan. O'qituvchi bergan bilim, tarbiya, katta hayot ostonasiga poydevor bo'ladi. Imom Buxoriy aytganidek: "Bolaning tabiati rivojlanishga moyil bo'ladi, uni qanday g'oyalar bilan to'ldirish, ota-ona va ustozga bog'liq". Albatta kelajak yosh avlodniki! Ularni komillik sari ma'rifatli qilib yetkazishda o'qituvchilarning o'rni beqiyosdir.

Maktab hayotida, erkak o'qituvchilarning kamligi, bugungi kunimizning eng og'riqli nuqtalaridan biri hisoblanadi. Har birimiz ham go'zal oilada dunyoga kelamiz, bu oilamiz esa katta jamiyatning tayanchi hisoblanadi. Mamlakatimizning ertangi kuniga bo'lgan munosabatimiz, albatta oilamizdan boshlanadi. Farzand tarbiyasi, bu eng katta mehnat, mashaqqat, ehtiyotkorlik talab etadigan faoliyatdir. Aristotelning "Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi" degan gapi bejiz aytilmagan. Bobokalonimiz Ibn Sinoga "Bola



tarbiyasini qachondan boshlash kerak?” deb savol berishganda “Bola tarbiyasini bola tug‘ilishidan oldin, ona qornida vaqti boshlash kerak” degan ekanlar. “Qachonki, bola tarbiyali bo‘lsa u mukammal ilm sohibi, komil inson bo‘la oladi. Shak-shubhasiz, ota-ona, oila, mahalla, o‘qituvchilar bolalar tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda bolani chiroyli odob-axloqli, ilmlı, tarbiyali qilib voyaga yetkazish davlat miqyosidagi dolzarb masala hisoblanadi. “Bir bolaning tarbiyasiga yeti mahalla ota-ona” –deganlari bejiz emas.”

Barkamol avlod tarbiyasida, o‘qituvchining roli ham yetukdir. Yurtimizda, o‘tgan davr mobaynida ta‘lim-tarbiya sohasini yanada rivojlantirish, o‘qituvchi nufuzini oshirishga qaratilgan bir qator farmon va qarorlar qabul qilindi. Jumaladan Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev maktab muammolari birinchi darajali muammo deb qaralishini aytib “Ta‘lim maskanlarining moddiy-texnik bazasini, kadrlar salohiyatini oshirish, darslik va qo‘llanmalarni jahon talablariga moslashtirish, soha xodimlarining ish haqini bosqichma-bosqich oshirib borish, ularning mashaqqatli mehnatlarini qadrlash bundan buyon doimo e‘tiborimiz markazida bo‘ladi” deya ta‘kidladilar.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning “Yoshlarni ma‘naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta‘lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” qarori hamda “Xalq ta‘limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonida, jumladan o‘qituvchilarning jamiyatdagi nufuzini ko‘tarish, yuksaltirishga oid qator vazifalar belgilandi.

Konsepsiyada ham belgilangan vazifalar O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi talablari, Uzluksiz ma‘naviy tarbiya konsepsiyasi, milliy va jahondagi ilg‘or tajribalar, mamlakatimizdagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar bilan uyg‘un ravishda amalga oshiriladi.

Pedagog xodimlarning maqomi jamiyat va davlat tomonidan tan olinadi. Pedagog xodimlar ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanadi, o‘z kasbiy faoliyatini amalga oshirishi, ularning ijtimoiy maqomi va obro‘si ni oshirish uchun tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratiladi, shuningdek o‘z huquq va qonuniy manfaatlarini amalga oshirish uchun kafolatlar beriladi.

Bugun har bir pedagog va tarbiyachi, oliygohda ta‘lim beruvchi professor o‘qituvchilar ta‘lim va ilm-fan sohasidagi eng so‘nggi ijobiy yangiliklarni o‘quv jarayoniga tatbiq eta oladigan, chuqur bilim va keng dunyoqarash egasi, jamiyatning eng ilg‘or vakillari bo‘lmog‘i shart. Ayni vaqtda maktablarning ham mas‘uliyatini oshiradigan davr keldi!



Oilada farzandga ta'lim-tarbiya berish, qon-qonimizga singib ketgan muqaddas tuyg'u, biz oilamizda otamizdan mardlik, jasurlik onamizdan esa sabrlilik, mehribonlik kabi xislatlarni o'zimizda kamol toptiramiz. Ota va onamizdan birgalikda olgan bilim, tarbiyamizni, farzand o'zligini anglagunga qadar, ya'ni bu davrda bizdan bog'cha, maktab ta'limi hayotidan olmog'imiz juda-juda muhimdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari, boshlang'ich o'quviga kelgunga qadar, bog'cha hayotida tarbiyalanadi, albatta bunda bizni ayol kishi bog'cha opalarimiz tarbiyalaydi.

Boshlang'ich ta'limda ham ayol o'qituvchi!

Respublikamizdagi, umumiy o'rta ta'lim tizimida erkak va ayol o'qituvchilar soniga qarab o'tadigan bo'lsak:

2016-2017-o'quv yilida jami 390.6 ming nafar o'qituvchi, shundan 276.2 ming ayol (70.7 foiz), 114.4 ming erkak o'qituvchi (29.3 foiz).

2017-2018-o'quv yilida jami 409.4 ming nafar o'qituvchi, shundan 290.3 ming ayol (70.1 foiz), 119.1 ming erkak o'qituvchi (29.9 foiz).

2018-2019-o'quv yilida jami 444.2 ming nafar o'qituvchi, shundan 309 ming ayol (70.1 foiz), 133.2 ming erkak o'qituvchi (29.9 foiz).

2019-2020-o'quv yilida 486.6 ming nafar o'qituvchi, shundan 337.9 ming ayol (69.4foiz), 148.7 ming erkak o'qituvchi (30.6 foiz).

2020-2021-o'quv yilida 507.7 ming nafar o'qituvchi, shundan 348.6 ming ayol (68.6foiz), 159.1 ming (31.4 foiz) erkak o'qituvchilar tashkil qilmoqda.

Olib borgan tadqiqot natijalarimizga ko'ra Toshkent viloyati Chirchiq shahrida 2022-2023 statistikasiga ko'ra 25 ta maktabda 1645 ta pedagog faoliyat olib bormoqda, shulardan 1378 nafar ayol o'qituvchi (83.7 foiz), 267 nafar (16.3 foiz) erkak o'qituvchilar tashkil qilmoqda. Ko'rishimiz mumkinki, erkak o'qituvchilarning maktab hayotidagi, faoliyati, juda-juda oz.

Raqamlarni ko'zdan kechirish, hududlarga bo'lib o'rganish mazkur yo'nalishdagi ishlar hali qoniqarsiz ahvolda ekanligini ko'rsatmoqda.

Bundan 30-40 yil ilgari maktablarda pedagog xodimlarning 70% ga yaqini erkak o'qituvchilardan iborat bo'lardi. Bugungi kunda pedagoglarning 70%dan oshig'ini ayollar tashkil etmoqda. Yillar davomida erkak o'qituvchilar maktablardan uzoqlashdi. O'tgan davr mobaynida maktabda, erkak o'qituvchilarning kamayish sabablarini tahlil qilib ko'raylik:

- daromadning kamligi;(erkak o'qituvchi, oilaning tayanchi, u oilasini moddiy tomonlama ta'minlashi vazifasi)
- ko'pchilik erkak o'qituvchilarda boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashda sabrlilik yo'q;



- hozirgi kunda, chet elda mehnat qilib faoliyat yuritish, u joyda daromadning yaxshiligi, dunyo kezishligi;
- ortiqcha hujjatbozlik, o'z ustida ishlashga imkon berilmasligi;
- o'tgan davrlarda o'qituvchilarning o'z sohasiga tegishli bo'lmagan ishlarga jalb qilinaverishi, natijada darslar o'tilmay qolib ketaverishi, har qahday tashkilotning o'qituvchilar mehnatidan foydalanaverishi, ularning "egasiz" qolib ketib, xo'jayinlarning ko'pligi ham g'ururi bor erkak o'qituvchilarning sevimli kasbidan voz kechib ketishga majbur qildi.

Respublikamizda ayol o'qituvchilar soni talaygina, ayol kishi muallima tarbiyachi bo'lishi bu albatta yaxshi, lekin degan joyi bor, o'quvchilar ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari faqat ayol kishi yoki faqat erkak kishiga bog'lanib qolmasligi kerak, ularga ayol va erkak hamkorlikda ta'lim-tarbiya bermog'i lozim! Agar faqat ayol yoki erkak o'qituvchi ta'lim beradigan bo'lsa, quyidagi holatlarni ko'rib chiqamiz.

Ayol o'qituvchi ta'lim beradigan bo'lsa:

- o'g'il bolalarda, qat'iyatlik yo'qoladi;
- mardlik, dovyuraklik tuyg'ulari kamayadi;
- o'g'il bollar, ayol o'qituvchisiga mehribon bo'lgan holda, ulardagi ayollarga xos bo'lgan xislatlarni o'ziga singdirib oladi.
- qizlarda ham erkak o'qituvchining tarbiyasi bo'lmog'i zarur;
- ayol o'qituvchi qanchalik qat'iyatli bo'lmasin, mehr tuyg'ulari ustun keladi va buni o'quvchilar sezadi;
- qizlar tarbiyasida erkak o'qituvchining o'ziga yarasha o'rni bor.

Shuning uchun kuchli bilim va mahoratga ega bo'lgan erkak o'qituvchilar maktab hayotida bo'lishi ta'lim sifatini oshishi, ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilanishi, ayniqsa o'g'il bollarining ta'lim-tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabda erkak o'qituvchilarning o'z o'rni bor. Ta'lim maskanida tartib-intizomni saqlash, darsni tushuntirish va o'quvchining o'zlashtirishida ham ularning ta'siri kuchli. Ular o'quvchilarning dars va darsdan tashqari vaqtlaridagi faoliyatlarini muntazam nazorat qilib borishlari juda muhim hisoblanadi. Chunki o'quvchilar sabr-bardoshni, qat'iyatni aynan erkak o'qituvchilardan o'rganadi.

Faqat erkak o'qituvchi dars beradigan bo'lsa:

- o'gil bolalarda, faqat erkakcha xislat paydo bo'ladi, ularda mehribonlik tuyg'usi kamayadi;
- qizlar erkak o'qituvchidan ta'lim olgan holda, o'g'il bollarga xos bo'lgan xislatlarni o'ziga singdirib oladi;



- erkak o‘qituvchining e’tibori, faqat o‘g‘il bollar bilan bo‘ladi, qizlarning muammolariga aralasha olmaydi.

Demak, faqat erkak o‘qituvchilar dars o‘tadigan bo‘lsa, bu yerda ham muammolar girdobi bo‘ladi, o‘g‘il bollar hayotida yaxshi bo‘lishi mumkin qizlar hayotida salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bizning yondashuvimizga ko‘ra, bog‘chada ham ayol, maktabda ham ayol o‘qituvchi bo‘lmasligi uchun, boshlang‘ich sinfni misol qiladigan bo‘lsak, ayol va erkak o‘qituvchi maktabda bitta sinfga hamkorlikda dars o‘tishi kerak. Ya’ni asosiy fanlarni: o‘qish, ona tili, matematika, fanlarni ayol o‘qituvchi o‘tsa, qolgan fanlarni, erkak o‘qituvchi o‘tishi kerak. Bunda albatta ayol va erkak o‘qituvchining bilim darajasi, dars o‘tishi, darsni o‘quvchilarga qanday yetkaza olishi va yetkazgan ma’lumotlarini talab qila olishi bir xil bo‘lgan, erkak va ayol o‘qituvchi bo‘lishi lozim.

Yuqori sinf o‘quvchilarida esa balog‘atga yetishi davri kechadi, bu davr 7-8-sinf va undan yuqori sinflardagi o‘quvchilarda kuzatiladi. Balog‘atga yetish davrida, bolalarda yangi xislar, turli holatlarga taalluqli masalalarning paydo bo‘lishi ta’sirida o‘smirning harakteri, muomilasi, atrofidagi narsa-hodisaga tez o‘zgarib boradi. Ayrim o‘g‘il-qizlarda, mana shu davrda turli nomaqbul ishlarga aralashib qolish holati kuzatiladi, bu yerda albatta erkak va ayol o‘qituvchilarning e’tibori juda-juda muhimdir.

Erkak o‘qituvchilar sonini oshirishimiz uchun qanday yechim topsak bo‘ladi:

- daromadni yaxshilamog‘imiz kerak (daromad yaxshi bo‘lsa pedagog faqat o‘zini bilim berishga sarflaydi, xayolida ijara pulini berishim kerak, bugun go’sht tugagan edi, pulni qayerdan olsam bo‘ladi, farzandimga oyoq kiyim olishim kerak v.h xayollar bo‘lmaydi);
- pedagoglarning maqomini kuchaytirishimiz, pedagoglarga ota-onalar tomonidan bo‘ladigan tajovuzlarni qonun tomonidan himoyaga olishimiz kerak;
- 5 yil stajga ega bo‘lgan xotin-qizlarga qo‘shimcha davlat granti va kvotalarni alohida beriliyotgan vaqtda bu jarayonni erkak o‘qituvchilar uchun ham qilmog‘imiz va OTM ning pedagogika yo‘nalishlariga ko‘proq erkak abituriyentlarni qamrab olsak, buning natijasini ozgina yillardan so‘ng ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak ta’lim tizimida bizga erkak o‘qituvchilar kerak. Abdulla Avloniy “Tarbiya biz uchun yo hayot–yo momot, yo najot–yo halokat, yo saodat–yo falokat masalasidir” deb bejiz aytmagan. “Ajdodlarimiz asrlar davomida sevib mutolaa qilgan “Pandnoma”, “Siyosatnoma”, “Qobusnoma”, “Axloqi muhsiniy”, “Axloqi jaloliy”, “Axloqi nosiriy”, “Qonuni hikmat”,



“Nigoriston”, “Bahr al-ulum”, “Kachko’li sultoni”, “Jovidoni xirad”, “Bistu se hikmat”, “Hikoyoti dilpisand”, “Odob as-solihin”, “Turkiy “Guliston” yoxud axloq” singari asarlar shular jumlasidandir. Ushbu nodir asarlarda avval axloq-tarbiyaga oid biror so’z va tushunchani izohlab, keyin unga o’quvchi amal qilish uchun naqliy va axloqiy dalillar keltiradi. Umuman ularning mazmun-mundarijasi, ularda ilgari surilgan ilg’or g’oyalar bugungi kunda ham o’z ahamiyatini yo’qotmagan. Tarbiyaga e’tiborsizlikning oqibati nimalarga olib kelishini o’z vaqtida Abdulla Avloniy kuyunib, “Bugungi kunda jamiyatimizning yuzini qora qiluvchi pastkashlar, yomonlar, beboshlar, o’g’rilar, giyohvandlar va nashavandlar... kecha tarbiyalariga e’tibor berilmagan bolalardir”, deb yozib qoldiradi.”

Jamiyatda ustoz va murabbiylarga qaratilayotgan e’tibor tufayli 2020 yilgacha 15000 nafar erkak o’qituvchi maktablarga qaytdi. Bugungi kunda hujjatbozliklarning kamayishi, uy-joy va avtotransport vositalarining imtiyozli kredit asosida o’qituvchilarga berilishi ham ta’limdan yiroqlashgan pedagoglarni ham maktabga qaytarmoqda. Zimmasida uy-joy muammosi turgan oila boshliqlari uchun bu imtiyozlarning berilishi ayni muddao bo’ldi. Hozirgi paytda umumta’lim muassasalarining oliy ma’lumotli pedagog kadrlar bilan ta’minlanish darajasi 87-90% ni tashkil etmoqda. Zeroki kelajagimiz Alisher Navoiylarini chiqarmoq uchun bugundan harakat qilmog’imiz shart.

Adabiyotlar:

1. Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 6-iyundagi 422-son Qaroriga 3-ilova “Umumiy o’rta ta’lim muassasalari o’quvchilari uchun “Tarbiya” fani konsepsiyasi;
2. O’zbekiston Respublikasi “Ta’lim to’g’risida”gi qonuni;
3. Karamatova D.S., Tolliyeva G.R., Qilichova M.J. O’quvchilarda ekologik ong va ekologik madaniyatni rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida// «Образование и наука в XXI веке» Международный научно-образовательный электронный журнал. Выпуск № 25 (том 3), март, 2022. - В.956-962.
3. I.D.Qodirov, U.M.Yaxshiyev, J.F.Ravshanov: Yosh pedagoglarga tavsiyalar. -Chirchiq-2020
5. N. Abdulaxatov: Tarbiya-buyuk ne’mat. -maqola.
6. O.Jabborova, F.Ochilov: “Bolalar pedagogikasi” “ZEBO PRINT” Toshkent-2022.
7. O.Jabborova, Z.Umarova: “Boshlang’ich ta’limda “Tarbiya” fanini o’qitish metodikasi” “ZEBO PRINT” Toshkent-2022.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada, maktab hayotida erkak o’qituvchilarning maktab hayotidan ketishiga sabab va ularni qaytarishda qanday yo’llar qo’llashimiz kerakligi haqida fikr yuritilgan.

РЕЗЮМЕ

В этой статье рассматриваются причины, по которым учителя-мужчины уходят из школьной жизни, и что мы должны сделать, чтобы вернуть их.

SUMMARY

This article discusses the reasons why male teachers leave school life and what we should do to bring them back.